

1/2024,
yanvar-
fevral
(№ 00069)



IQTISODIYOTNING YETAKCHI TARMOQLARIDA INNOVATSION FAOLIYAT VA UNING AHAMIYATI

Dexkanova Nargiza

TDIU "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD
dexkanovashox@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-7730-2020>

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss1/i14

Annotatsiya

Maqolada innovatsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishning eng xarakterli xususiyatlaridan biriga aylanib borayotganligi va bozor rivojlanishini tezlashtiruvchi omil sifatida Bundan tashqari innovatsiya tushunchasi uning mohiyatiga turli yondashuvlar, jumladan mahalliy hamda xorijiy mamlakat olimlarining yondashuvlari, innovatsion muhit ushbu yo'nalishda ko'plab iqtisodchi olimlar tadqiqotlari tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy dunyoda innovatsiyalardan keng foydalanish orqali tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga erishish mumkinligi haqida, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini yanada oshirishda sanoat korxonalariga innovatsiyalardan keng foydalanish hamda sohani takomillashtirish borasida taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Globallashuv, dunyo, mahsulot, sanoat, korxonalar, raqobat, texnika, bozor, innovatsiya, jamiyat, fan, tadqiqot, invensiya, rutinizatsiya, novatsiya, diffuziya.

ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ В ВЕДУЩИХ ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ

Дехканова Наргиза

Старший преподаватель кафедры «Зеленая экономика и устойчивый бизнес» ТГЭУ, PhD

Аннотация

В статье инновации становятся одной из наиболее характерных особенностей экономического развития и как фактор, ускоряющий развитие рынка. Кроме того, понятие инновации анализируется с помощью различных подходов к ее сущности, в том числе подходов отечественных и зарубежных ученых, и исследования многих экономистов в этом направлении. Также были даны предложения и рекомендации о возможности ускоренного развития предпринимательства за счет широкого использования инноваций в современном мире, широкого использования инноваций и совершенствования отрасли для дальнейшего повышения конкурентоспособности национальной экономики.

Ключевые слова: Глобализация, мир, продукт, промышленность, предприятие, конкуренция, техника, рынок, инновации, общество, наука, исследования, изобретения, рутинизация, инновации, распространение.

INNOVATION ACTIVITY AND ITS IMPORTANCE IN LEADING INDUSTRIES OF THE ECONOMY

Dekhkanova Nargiza

Phd is a senior lecturer of the "Green economy and sustainable business" department of TSUE

Abstract

In the article, innovation is becoming one of the most characteristic features of economic development and as a factor that accelerates market development. In addition, the concept of innovation is analyzed by various approaches to its essence, including the approaches of local and foreign scientists, and the research of many economists in this direction. Also, suggestions and recommendations were given about the possibility of rapid development of entrepreneurship through the wide use of innovations in the modern world, the wide use of innovations and improvement of the industry to further increase the competitiveness of the national economy.

Key words: Globalization, world, product, industry, enterprise, competition, technology, market, innovation, society, science, research, inventions, routinization, innovation, distribution.

Kirish

Bugungi kunda jahonning yetakchi davlatlarida sanoat tarmog'ini yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Sanoat korxonasining asosiy tayanchi ishlab chiqarishning rivojlanishi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uning innovatsion faoliyatiga bog'liq. Globallashuv jarayonida jahon davlatlari iqtisodiyotida raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda mamlakatimizda iqtisodiyotning zamonaviy, ya'ni innovatsion shaklini barpo etish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan ilm-fan va ishlab chiqarishni o'zaro bog'laydigan mustahkam mexanizm bosqichma-bosqich ishlab chiqilmoqda.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, iqtisodiyotning yuqori innovatsion faolligi davlatning ilmiy-texnik bozordagi yetakchi roli bilan, milliy ustuvor yo'nalishlarning belgilanishi bilan, davlatning innovatsion taraqqiyot jarayoniga iqtisodiy rag'batlantiruvchi tizim orqali faol ta'sir ko'rsatishi bilan ta'minlanadi.

Bugungi kunda jamiyat va iqtisodiyotimizda innovatsion faoliyatni rivojlantirish, iqtisodiy o'sish hamda aholi turmush darajasini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. XXI asr tarixga innovatsiyalar asri bo'lib kirdi. Innovatsiya, fan va texnikaning bugungi kundagi yangi texnologiya, mahsulot, axborot va kommunikatsiya vositalarida, texnik va tashkiliy boshqarishning yangi usullarida, yangi xizmat turlarida gavdalangan yutug'idir.

Innovatsiya tushunchasini mohiyatiga turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ushbu yo'nalishda ko'plab iqtisodchi olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Biroq bugungi kunda innovatsiya tushunchasining ko'p qirraliligi va murakkabligi tufayli umum e'tirof etilgan yagona ta'rif mavjud emas. "Innovatsiya" tushunchasi ilk marta XIX asrda xorijiy madaniyatshunoslar tomonidan madaniyat sohasidagi o'zgarishlarni tadqiq etishda foydalanilgan bo'lib, bir madaniyat unsurlaridan boshqa madaniyat yo'nalishiga tadbir etish uchun qo'llanilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ilmiy adabiyotlarda innovatsion muhit terminiga juda ko'p tushunchalar berilgan. Sooke Ian, Mayers P - innovatsiya bu g'oyadan tortib to bozorda realizatsiya qilinadigan tayyor mahsulotgacha bo'lgan barcha jarayonlardir [1].

Medinskiy V.D va Ildemenov S.V ta'rifiga ko'ra innovatsiya bu ishlab chiqarishga joriy etilgan ilmiy tadqiqotlar natijasi yoki turdoshlaridan tubdan farq qiladigan kashfiyotlardir [2].

Shuningdek Bolshakov A.S. esa innovatsiyani bu bozorda realizatsiya qilinadigan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot shuningdek, amaliyotda foydalaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonlar shaklida kirib borgan ijodiy faoliyatning pirovard

natijasidir deya ta’riflagan[3].

Jumladan, Rossiyalik iqtisodchi-olim Balabanov I.T. fikriga ko’ra: “innovatsiya-nazorat, hisob, rejallashtirish usuli, tahlilga qabul qilishning yangi shakllarini qamrab olgan holda yangi texnika va texnologiyaga, ishlab chiqarish, mehnat, xizmat ko’rsatish, boshqarishni tashkil etishning yangi shakliga kapitalni kiritishdan olingan moddiylashgan natijani o’zida namoyon etadi” [4]

Shuningdek, Borisov A.B. innovatsiyalarni quyidagisha ta’riflaydi: “innovatsiya texnologiyalarning yangi turlarini ishlab chiqish, yaratish va tarqatish (diffuziya), yangi tashkiliy shakllarni joriy etishga qaratilgan ijodiy faoliyat natijasini anglatadi”[5].

Albatta, innovatsiya kabi hodisani o’rganish jarayonida ikki olim, ya’ni N.Kondratyev va Avstriyalik J.A.Shumpeterning nomlarini unutmaslik kerak. Aynan Shumpeter o’zining “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” tadqiqotida innovatsiya tushunchasiga birinchi bo’lib ta’rif bergan [6]. U innovatsiyani tijorat muammolarini hal qilishga qaratilgan mavjud ishlab chiqarish omillarining ilmiy va tashkiliy birikmasi sifatida talqin qildi. Shumpeter bevosita innovatsiyalarda iqtisodiy tizimlarning rivojlanish manbasini payqadi. Chunki o’ziga xos kontent innovatsiyasi-bu o’zgarishlar, ular beshta tipik o’zgarishlarga e’tibor berib, ta’kidlagan:

1. Yangi texnologiyalar, yangi texnologik jarayonlar yoki yangi ishlab chiqarish bozorlarini ta’minlash;
2. Yangi xususiyatlarga ega mahsulotlarni joriy etish;
3. Yangi xom ashyolardan foydalanish;
4. Ishlab chiqarishni tashkil etish va ishlab chiqarishni moddiy-texnik ta’minotidagi o’zgarishlar;
5. Yangi bozorlarning paydo bo’lishi. Bundan tashqari, u innovatsiya tushunchasidan foydalanib, uni o’zgarishlar sifatida izohladi, uning maqsadi iste’mol tovarlarining yangi turlarini, yangi ishlab chiqarishni va yangi ishlab chiqarishni tashkil etish shaklidagi transport vositalarini joriy etish va ulardan foydalanishdir.

Xorijiy mamlakatlar tajribasini atroflicha tadqiq etgan iqtisodchi olimlardan professor A.V.Vahobov innovatsiyalarning texnologik rivojlanish va iqtisodiy o’sishga ta’siriga e’tibor qaratib, “Innovatsion faoliyatdagi eng muhim masala - yangi texnologiyalarning alohida mamlakat iqtisodiy o’sishiga qo’shgan ulushini aniqlashdir. Texnologik rivojlanish va iqtisodiy o’sish o’rtasidagi ijobiy bog’liqlik neoklassik o’sish omillaridan biri bo’lgan ekzogen texnik rivojlanish modeli orqali isbotlangan”, deb ta’kidlaydi[6].

Shuni aloxida ta’kidlash kerakki hech qanday inovatsiya tegishli investitsiyalarsiz joriy qilinishi mumkin emas. Innovatsiyalarni ishlab chiqish yuqori xatarli jarayon bo’lganligi sababli aniq innovatsiyani investitsiyalashning maqsadga muvofiqligini asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.


Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotni amalga oshirishda asosan statistik guruhlash, va taqqoslash ilmiy abstraksiyalash kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi, ya’ni sanoat tarmog’ining asosiy ko’rsatkichlari sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat diamikasi keltirib o’tildi, sanoat tarmoqlariga innovatsiyalarni keng jalb etgan korxonalar soni hamda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini faoliyatini dinamikasi tahlil qilindi. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini yanada oshirishda sanoat korxonalariga innovatsiyalardan keng

foydalanish hamda sohani takomillashtirish borasida xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Innovatsiya mohiyatiga ko'ra innovatsion jarayon tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Ko'pchilik tadqiqotchilar yangi g'oya, bilim va takliflarning innovatsiyaga aylanish jarayonini innovatsion faoliyat sifatida baholaydilar. Innovatsion jarayon innovatsiyalarning bozorga tadbiiq qilinishi bilan tugamaydi, negaki diffuziya natijasida innovatsiya ham takomillashib boradi, yangi iste'mol xususiyatlariga ega bo'ladi. Aynan mana shu tafovut innovatsion faoliyatni ilmiy texnik taraqqiyotdan ajratib turadi. Innovatsion jarayonning uchta tarkibiy qismlari mavjud bo'lib, ular o'z navbatida to'liq bir siklni bosib o'tadi: novatsiya, innovatsiya (novatsiyalarning amaliy faoliyatga tadbiiq etilishi), innovatsiyalar diffuziyasi. Biroq ushbu innovatsion jarayonning tarkibiy qismlari tasnifi birmuncha eskirgan bo'lib, bugungi kunda quyidagi bosqichlardan tashkil topishini ko'rishimiz mumkin (1-rasm)



1-rasm. Innovatsiyalarning hayotiy sikli

Manba: Shanazarova G.B. Sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatni boshqarish mexanizmlarini takomillatirish. 18bet. [7]

Innovatsion faoliyat tadqiqot ob'ekti sifatida juda keng qamrovga ega, murakkab va turli jarayonlar va voqealarni qamrab oladi. Innovatsion jarayonning asosini mahsulotning yangi sikli tashkil etadi: yangi g'oya paydo bo'lgandan boshlab, iste'molchining amalda foydalanishigacha. [8]

Sanoat kornobalari faoliyatining natijasi bo'lgan mahsulotlar va xizmatlar sifatining oshishi innovatsiyalarni joriy qilishning asosiy maqsadi hisoblanadi. Odatda mahsulotlar va xizmatlarning sifati va istemol tavsifi raqobatchilarning mahsulotlar va xizmatlar bilan taqqoslash asosida aniqlanadi. [9]

Sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan innovatsion faoliyatning murakkab ko'p tomonlama kategoriyasi sifatida uchta jihatini ko'rib chiqish mumkin:

- bir vaqtning o'zida ketma-ket ilmiy tadqiqot, ilmiy texnik, innovatsion, ishlab chiqarish faoliyati va marketing yo'nalishida amalga oshirish;
- yangilikning zaruriy davrining vaqtinchalik bosqichi sifatida g'oya paydo bo'lgandan boshlab, uning ishlashi va tarqalishigacha;


- moliyalash va sarmoya qo'yish jarayoni sifatida mahsulotlar va xizmatlarning yangi turi ishlashi va tarqalishi. Bunday hollarda u innovatsion loyiha sifatida innovatsion loyihaning xo'jalik amaliyotida keng tarqalishi hodisasi sifatida yuzaga keladi.

Bizning fikrimizcha, innovatsion faoliyatni amalga oshirish mexanizmi - bu maqsadli harakatlar tizimi, g'oyalarni shakllantirish, innovatsion g'oyalar va investitsion imkoniyatlarni o'rganish, shuningdek, innovatsion loyihani amalga oshirishni ta'minlovshi ishtirokshilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik shakli bo'lgan iqtisodiy mexanizmning alohida turidir. [10]

Innovatsion faoliyatni amalga oshirish mexanizmi tuzilmasida biz quyidagi quyi tizimlarni ajratib ko'rsatishni taklif qilamiz:[11]

1. Innovatsiyalarni tartibga solishning bozor mexanizmi faoliyati;
2. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish;
3. Korxonaning innovatsion faoliyatini amalga oshirishning ichki mexanizmi.

Mamlakatimiz sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlanishini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilib o'tamiz. Respublikamizda innovatsion faoliyatni rivojlanishini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilib o'tamiz. Respublikamizda innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan jarayonlarga umumiy baho berish maqsadida mahsulot, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonlar dinamikasini 2010-2018 yillar mobaynidagi o'zgarishini keltirib o'tgan (2-rasm)



2-rasm. Jami innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar¹

Mamlakatimizda innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar keying 8 yil mobaynida 9.1 barobarga oshgan. Ya'ni 2010 yilda 289 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2017 yilga kelib 2510 taga yetganligini ko'rishimiz mumkin. Innovatsion faoliyatni rivojlanishi dastlabki davr, 2010-2012 yillarda unchalik yuqori bo'lmaganligi biroq 2014-2017 yillarda keskin oshganligini kuzatishimiz mumkin.

Innovatsion faoliyatni tartibga solishning bozor mexanizmi bizning fikrimizcha, birinchi navbatda, innovatsion va investitsion resurslarga bo'lgan talab va taklifni o'rganish mexanizmini tushunish lozim. Kapital qo'yish obyektlarini tanlashda mablag'larni investitsiya qilish xavfi va olingan daromadning nisbati investorlarning manfaatlari

tomonga hal qiluvshi ta'sirni o'tkazadi. Shuni ta'kidlash kerakki, amalda innovatsion-investitsion loyihalarni amalga oshirishning haqiqiy rentabelligi uning prognoz qilingan qiymatiga kamdan-kam hollarda to'g'ri keladi.

Demak, innovatsion loyihaning rentabelligini ishonchli va to'g'ri aniqlash muammosi moliyaviy investitsiyalarga qaraganda ansha dolzarbdir. Investitsiyalar investitsiya qilingan kapitalning maqbul daromadini va minimal tashqi risklarini ta'minlaydigan mamlakatlar va tarmoqlarga o'tkaziladi. Investorlar innovatsion loyihalarga sarmoya kiritishda siyosiy risklarni baholashga alohida e'tibor berishadi.

Innovatsion faoliyat ma'lum bir boshqaruv mexanizmiga asoslangandagina muvaffaqiyat qozona oladi. O'zbekistonda texnologiyalarni raqamli iqtisodiyot sharoitida tijoratlashtirishga yordam beradigan innovatsion-investitsion infratuzilmani shakllantirishning me'yorlari hali to'liqligisha milliy darajada shakllanmagan va uni yaratish turli tavsiyalar bilan tartibga solish ko'zda tutilgan.

Shunday qilib, innovatsion faoliyatni ma'lum bir iqtisodiy mexanizmga asoslanishi haqidagi yondashuv asosli hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, innovatsiya, fan va texnikaning bugungi kundagi yangi texnologiya, mahsulot, axborot va kommunikatsiya vositalarida, texnik va tashkiliy boshqarishning yangi usullarida, yangi xizmat turlarida gavdalangan yutug'idir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, innovatsion tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan va ishlab chiqarish jarayoniga xorij tajribasini qo'llab, yangiliklar joriy etilgan zamonaviy korxonalarda, an'anaviy korxonalarga nisbatan ish haqi 2-3 barobar, ish unumdorligi 2 barobar oshganligi, ayniqsa ishchi xizmatchilar turmush darajasining ilgariga nisbatan sifati va farovonligi ta'minlanayotganligi bugungi innovatsion iqtisodiy islohotlarining ijobiy tomonlarini ko'rsatmoqda. Ammo erishilayotgan yutuqlar bilan bir qatorda hal etilishi lozim muammolar ham mavjud. Xususan:

- tadbirkorlarimiz biznesni boshqarishda yetarlicha malakaga ega emasligi; ➤ ishchi xodimlarning yangiliklarni tez o'zlashtira olmasligi;
- ular ichki va tashqi risklarni, innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyojni va jahon bozoridagi o'z holatini yetarlicha baholay olmaydilar;
- korxonalarni rivojlantirish, raqobatbardoshlikni oshirishga yetarlicha e'tibor qaratilmagan;
- ishbilarmonlik muhitini tashkil etish va innovatsiyalarni rag'batlantirish tuzilmasini ishlab chiqishda ham ko'plab muammolar mavjud. Ushbu muammolarni hal etishda quyidagi taklif va tavsiyalarni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:
- ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish jarayonida xususiy biznesning rolini oshirish kerak, bu esa tadqiqot va ishlanmalarga investitsiyalar samaradorligini oshirishga turtki beradi;
- innovatsiyalar uchun zarur bo'lgan investitsiyalar darajasini oshirish va raqobatni kuchaytirish kerak;

Bizning fikrimizcha, innovatsion faoliyatni amalga oshirish mexanizmi - bu maqsadli harakatlar tizimi, g'oyalarni shakllantirish, innovatsion g'oyalar va investitsion imkoniyatlarni o'rganish, shuningdek, innovatsion loyihani amalga oshirishni ta'minlovchi ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik shakli bo'lgan iqtisodiy mexanizmning alohida turidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sooke Ian, Mayers P. Introduction to Innovation and Teshnology Transfer. Boston: Artesh House, Ins., 1996. Part 1. – P.124
2. Медынский В.Д., Ильдеменов С.В. “Инжиниринг инновационного предпринимательства”. -М.: Юнити, 1999. – 414 С.
3. Большаков А.С., Михайлов В.И. Современный менеджмент: теория и практика. -СПб.:Питер, 2000. –411 С.
4. Balabanov I.T. Innovatsionnyy menedjment. – SPb.: Piter, 2001. – S. 41.
5. Борисов А.Б. Большой экономический словарь. – М.: Книжный мир, 2000. – С. 185.
6. Шумпетер Й. Теория экономического развития / пер. с венг. М.:1990.-S.83.
7. Shanazarova G.B. Sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatni boshqarish mexanizmlarini takomillatirish.
8. O.E.Ernozarov. Innovatsiyalar asosida sanoat korxonalari samaradorligini oshirish. Diss. iqt. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).- Toshkent 2021;
9. Xasanova G.J. Sanoat korxonalari innovatsiya faoliyati samaradorligini oshirish. Ixtisoslik: 08.00.04 – “Mikroiqtisodiyot”. -I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Buxoro davlat universiteti. – Toshkent, 2006. -B.11-12.;
10. Dexkanova N.SH. Организация инновационных кластеров в управлении инновационно-инвестиционной деятельностью промышленных предприятия // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2020 yil . В 179–184.
11. Dekhanova N. Sh. Modern approaches to the implementation of innovative processes in industrial enterprises : сборник конф. «Проблемы и перспективы экологии региона и инновационных технических технологий». – Ташкент, 2020. – С. 401-403.